IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

“QATL KUNI" ROMANIDA O'TMISH VA BUGUNGI KUN MASALASI

Shavkatjonova Kamolaxon

Farg’ona davlat universiteti filologiya fakulteti o’zbek tili yo’nalishi 3-kurs talabasi**,**

Ilmiy rahbar **J.Sayidolimov**

Annotatsiya

Ozarbayjonlik yozuvchi Yusuf Samado’g’li Boku shahrida tavallud topgan. Ko’plab asarlari, jumladan “Galaktika”, “220-xona”, “Qatl kuni” kitoblari xalq orasida mashhurdir. Ushbu asarlari Usmon Qo’chqorov tomonidan o’zbek tiliga tarjima qilingan.

Kalit so’zlar

Adabiyot, o’tmish bugun, ijodkor mahorati, ijodiy yonadashuv.

XX asr adabiyotimizda shakllangan ro'yxatdagi asarlar soni hajm va mazmun jihatdan davr talabiga javob berib kelmoqda. Buning dalili sifatida “Eng yirik 111 adabiyotlar” ro'yxatini olishimiz mumkin. Bu ro'yxatning dastavvalida Gabriel Garsia Markes “Yolg'izlikning yuz yili” kitobi turadi. Undan so'ng ikkinchi o'rinda Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani egallab turibdi. Uchinchi o'rinda esa Mixail Bulgakovning “Usta va Margarita” romani dunyo yuzini ko'irb kelmoqda. Davom ettirishimiz mumkin bo’lgan ro’yxat ichida Ozarbayjonlik Yusuf Samado’g’lining “Qatl kuni” romani mavjudligi quvonarli.

“Qatl kuni” romanida yozuvchi uch davr -o’rta asrlar, XX asrning yigirmanchi-o’ttizinchi yillari va yetmishinchi yillari aks ettirilgan. Muallif ana shu uch yo’nalishni bir-biriga bog’lay olgan. Asar bilan tanishgan kitobxonda shunday xulosalar paydo bo’lishi tabiiy: “O’tmish butunlay yo’qolib ketmaydi, u bugun ham,kelajakda ham yashayveradi”. Romanning tub mohiyati ham o’tmishni unuta olmaganlik uchun, kelajakdan qasd olish g’oyalari yotadi.

Roman peyzaj tasviri bilan boshlanyabdi. “Hali yulduzlar juda siyrak edi, bo’z samoda zafar shu’la bor edi. Bu shu’lalarni ba’zilari goh so’nib borayotgan, ba’zilari par-par yonib turardi”. Tasvirdagi yonib turgan yulduzlar kelajakdagi tubanliklarning yorqin “pirillash”I bo’lsa, xira yonayotgani o’tmishda olib borilgan siyosiy tuzumga ishora deb qarashimiz mumkin. Asarda o’tmish va bugungi kunni bog’lab turadigan narsa Bobo Koho tog’idir. Dastlab o’tmishda hukmdor, Xo’ja Anvar,shoir va jamiyki saroy a’yonlari qilgan gunoh ishlarini tog’da bo’layotgan ob-havodan va uning dahshatidan sezishar edi. Bugungi kun qahramonlari, ya’ni yetmishinchi yillar voqeasini shifokor Mahmud, Zamina,bemor, Salima xonim,Salahov,Muxtor Karimli kabi obrazlar harakatida ko’rimishiz mumkin. Ular ham qachonki Bobo Kohoda falokat bo’lsa o’sha kunni qatl kuni deb hisoblashgan. Demak asarda bugunni va o’tmishni bog'lab turgan narsa Bobo Koho tog’i sanaldi.

Mahmud obrazi asarda syujet voqealarini o’sib borishga xizmat qiladi. U hech narsadan qo’rqmaydigan, bemorlarni da’volash uchun xavfli qayiqlarda daryolardan suzib o’tishga ham seskanmaydigan qahramon sifatida gavdalangan. U o’z nafsiga qarshi kurashda doim yengilgan va faqatgina qatl kunidan, o’limdan qo’rqar edi. Chunki bu dunyoda qilgan gunohlari uchun javob

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

berish unga dahshatlidek tuyilardi. “Darhaqiqat o’lim haq,u har doim barhaq” ekanligini eslab yurardi

“Odamlarni bir-biriga bog’lab turgan narsa bu darddir. Na oy shu’lasi, na havo,na tuproq bularning hech biri emas-dard,faqat dard xolos. Dard shunday bir uzun arqonki,u dunyoning belini Kamara bilan tortib boradi,hamma shu kamarga yopishib bir-biriga jiplashadi..”. Asarning yana bir jihati uch davrni bog'lab turadigan narsa inson taqdiri va uning dardidir. Zulfiqor ota, Mahmud ham insonlarni dardi bilan yashagan va ularga yordam bergan obrazlar. O’tmishdagi saroy a’yonlarining qilmishlari ham shunga bog’liq. Misol uchun, hukmdor haqni kuylovchi shoirni qacholardir dorga osganligi, unga butun umr iztirob berib,dard bilan yashashga mahkum qiladi. Natijada, qatl kuni ana shu dardi buyuk gunohga aylanadi. Kelajakdagi obrazlardan biri “bemor”. Jamiyat uchun yozilgan asarlari Salahov tomonidan qaytarilaveradi. Oqibatda bu ishlar uning yuragida dard bólib, to’shakka yotib qoladi. Shunda ham u Sadi Afandining mashhur, lekin nomsiz kitobini tinmisiz o’ylayverib, harakatda uni topishga muvaffaq bóladi. Achinarli tomoni Salahov tomonidan o’tkazilgan majlisda, bu haqida gap ochilib chop ettirmasdan yana bu mavzu yopiladi. Bemor yozuvchining qizi orqali kitobni topadi, lekin bu dahshatli nomni eshitgan kuni ajaldan muhlat so’rashga ham ulgirmay, jon beradi. Asardagi kulminatsiya o’tmishda shoirning ólimiga ham, bugungi kun yozuvchisining ólimiga ham sababchi bólgan nom- Qatl kuni nomli kitobga bog’lanadi. Sóngida o’tmish qahramonlarining Bobo Koho sari ketayotganda òlim tomonga, bugungi kun qahramonlarini ham chorlashi sóngi manzil sari yakun yasaydi..

Ushbu “Qatl kuni” romani bugungi kishilarga,insoniyatga: agar bir-biringizni qirish,zóravonlik qilish kabi gunohlarni zudlik bilan tóxtatmasangiz,óz vijdoningiz amriga quloq solmasangiz,naslu-nasabingiz qirilib ketadi,degan hayqiriqdir.

(Uyqungiz shirin bólsin, tiriklar)

REFERENS:

1. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. Modern Science and Research, 2(6), 1104-1106.
2. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. IQRO , 2 (2), 777-785.
3. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. Modern Science and Research, 2(6), 848-853.
4. Baxtiyorjon o‘g‘li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41
5. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational,
    a. natural and social sciences, 3(3), 1318-1322СЕМИОТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В ЛИРИКЕ АНВАРА ОБИДЖАНА
6. Qahhor Yo'lchiyev - Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. – С383-387. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

7. LIRIK JANR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR.Q Yo'lchiyev - Scientific journal of the Fergana State University, 2022. № 2

WORDLY
KNOWLEDGE